

KOMMUNIKATIV NIYAT VA BAHO IJOBIYLASHUVI

Umarova Zumradxon Avazxon qizi

Qo‘qon davlat universiteti tayanch doktranti

Annotatsiya. *Kommunikativ niyat baholar o‘zgarishini pragmalingvistik jihatdan o‘rganishda muhim tushuncha sanaladi. Nutq vaziyati, unda til birliklarining qanday vazifada qaysi shaklda qo‘llanishi kommunikativ niyatga ko‘ra amalga oshadi. Shu jihatdan olib qaraganda, tilda so‘z yoki frazeologizm baholarining o‘zgarishini ham adresantning kommunikativ niyati belgilab beradi. Kommunikativ niyat tegishli til birligini adresant o‘zi istagan bahoda namoyon qilishga yo‘naltiradi. Kommunikativ niyat asosida nutq vaziyati shakllantiriladi, tegishli baho o‘zgarishini ta‘minlaydigan til birliklari nutq vaziyati uchun tanlanadi. Kommunikativ niyatsiz baho salbiylashuvi va ijobiylashuvi hodisalari yuzaga chiqishi mumkin emas. Adresant kommunikativ niyatiga mos nutq taktikalaridan foydalanadi. Demak, baho salbiylashuvi yoki ijobiylashuvi jarayoni kommunikativ niyatdan boshlanib, tegishli nutqiy taktikalar asosida so‘z tanlanadi va unga kommunikativ niyatga mos baho biriktiriladi. Shu tariqa nutq vaziyati shakllantiriladi va unda tegishli so‘z tegishli baho bilan namoyon bo‘ladi. Bu kabi bahoning o‘zgarishi jarayonida adresantning yoki tildan foydalanuvchi shaxsning til tizimiga maqsadli ta‘siri aniq sezilib turadi. Mazkur holat ham tilning antropotsentrikligini asoslaydi.*

Kalit so‘zlar: *baho munosabati, kommunikativ niyat, baho ijobiylashuvi, baho salbiylashuvi.*

Boshqird tilshunosi K.A. Saitova o‘zining “Xorij lingvistikasida baho nazariyasi va uni tadqiq qilish usullari” deb nomlangan maqolasida baho kategoriyasining o‘rganilishi bo‘yicha quyidagi tahlilni beradi: “Baholash kategoriyasining mohiyatini turli lingvistik yondashuvlar nuqtai nazaridan tavsiflashga qaratilgan urinishlar ilmiy tilga bu kategoriyani anglatuvchi turli terminlar shaklida aks etgan. Jumladan: “attitude” – Holliday (Halliday) tomonidan¹³, “appraisal” – Martin va Uayt (Martin & White) tomonidan¹⁴, “stance” – Biber

¹³ Halliday M.A.K. Halliday’s introduction to functional gram mar: 4th edition/ M.A.K. Halliday and Christian Matthiessen. Routledge, 2014. 808 pp.

¹⁴ Martin J. R. and P.R.R. White. The language of evaluation. Appraisal in English. Palgrave Macmillan, 2005. 278 pp.

10-May, 2026-yil

va Konrad, Charls, Johnstone, Inglebretson, Glynn tomonidan¹⁵, “evaluation” – Xanstoun, Tompson, Sinkler, Bednarek va Lemke tomonidan¹⁶ terminlari orqali ifodalangan.

Baholash yozuvchi yoki gapiruvchining shaxsiy fikrini ifodalash vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Bunda nafaqat alohida shaxsning fikri, balki uning mansub bo‘lgan jamiyatning umumiy nuqtai nazari ham aks etadi. Shuningdek, baholash gapiruvchi/yozuvchi bilan tinglovchi/o‘quvchi o‘rtasida munosabatlarni o‘rnatish va mustahkamlashga yordam beradi¹⁷.

Nutq obyektiga subyektiv munosabat bildirishning ochiq yoki yashirin bo‘lishi kommunikativ niyatga bog‘liq. Biror xatti-harakatga munosabatni ochiq ifodalash so‘zlarning to‘g‘ri ma‘nosidan ko‘p foydalaniladi va bu stilistikaning muammosiga kiradi. Ba‘zan adresantning kommunikativ niyati subyektiv munosabatni yashirin ifodalashga qaratiladi va buning tabiatini pragmalingsvistikasiz tushuntirib bo‘lmaydi. Nutq vaziyati va adresant omilini hisobga olibgina nima uchun nutq egasi o‘z subyektiv munosabatini ochiq ifodalaganini izohlash to‘liq bo‘ladi. Kommunikativ niyat aslida ijobiy baholi bo‘lmagan so‘zni ijobiy bahoda qo‘llashga olib kelsa, uning manbayini nutq egasi va nutq vaziyatidan izlash kerak. Tahlilni nutq egasi omilidan ham, nutq vaziyati omilidan boshlash mumkin. Agar tahlilni nutq egasi omilidan boshlasak, til egasining nutq vaziyatiga bo‘lgan munosabati, qanday qilib kontekstni shakllantirgani aniqlashadi. Agar tahlilni nutq vaziyatidan boshlasak, nutq vaziyatining til egasiga munosabati, nutqiy vaziyat so‘zni nega ijobiy bahoda namoyon etgani ma‘lum bo‘ladi. So‘z bahosining ijobiylashuvi hodisasini ushbu ikki xil usulda ham tadqiq qilish, pragmalingsvistik mohiyatini aniqlashtirish mumkin.

Kommunikativ niyat adresantga ma‘lum bir axborotni yetkazish imkonini beradi. Ma‘lumki, axborot minimum jumla vositasida ifodalanadi. Jumla yoki gap sintaktik jihatdan so‘z birikmalaridan tashkil topadi. Nutqda nisbiy tugallangan ohangda talaffuz qilinib, mazmuni anglatadi, diktum va modusdan iborat bo‘ladi¹⁸. Kommunikativ niyat sintaktik vositalar yordamida nutqiy aktga aylanar ekan, axborotdan tashqari munosabat ifodalanishi

¹⁵ Biber D., Johansson S., Leech G., Conrad S. and Finegan E. The Longman grammar of spoken and written English. London: Longman, 1999. 1203 pp. Charles M. The author’s voice in academic writing with reference to theses in politics and materials sciences. Ph. D. dissertation, Department of English, University of Birmingham, 2004. Inglebretson R. Stancetaking in discourse: an introduction // Stancetaking in discourse: subjectivity, evaluation, interaction/edited by R. Inglebretson. Amsterdam / Philadelphia: John Benjamins Publishing Company, 2007. Pp. 1–26. Glynn D. Quality and quantity: object and method in the study of subjectivity and epistemic stance // Subjectivity and epistemicity: corpus, discourse, and literary approaches to stance / edited by D. Glynn and M. Sjölin. Media Tryck Lund, 214. Pp. 3–21.

¹⁶ Bednarek M. Evaluation in media discourse. Analysis of a newspaper corpus. London / New York: Continuum, 2006. 272 pp. Bednarek M. Language patterns and attitude // Functions of language. No 16(2), 2009. Pp. 165–192. Hunston S. The evaluation of status in multi-modal speech // Functions of language. No 15(1), 2008. Pp. 64–83. Lemke J. L. Resources for attitudinal meaning: evaluative orientations in text semantics // Functions of Language. No 5(1), 1998. Pp. 33–56. Thompson G., Hunston S. Evaluation: an introduction // Evaluation in text: authorial stance and the construction of discourse / edited by S. Hunston and G. Thompson. Oxford University Press, 2000. Pp. 1–22.

¹⁷ Сайтова К.А. Теория оценки в зарубежной лингвистике и методы ее исследования // Вестник Башкирского университета, 2020. – №1. – С. 147.

¹⁸ Махмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. (синтаксис) – Тошкент: “Ўқитувчи” нашриёти, 1995. – Б. 40.

10-May, 2026-yil

ham mumkin bo‘ladi. Adresantning subyektiv munosabati kommunikativ niyatdan tashqaridagi hodisa emas, subyektiv munosabat ham kommunikativ niyatga ko‘ra yuzaga chiqadi. Adresant subyektiv munosabatini noverbal ifodalashi ham mumkin va bu paytda ham shaxsning niyati asosiy yuzaga keltiruvchilik manbai bo‘lib xizmat qiladi. Bundan kommunikativ niyatdan oldin shaxsda maqsad bo‘lishi, ana shu maqsad uni verbal va noverbal yo‘l bilan subyektiv munosabatini bildirishini ko‘rsatadi.

Kommunikativ niyat nutqiy ifodalanganda subyektiv munosabat ochiq shaklda yoki yashirin tarzda voqelanadi. Subyektiv munosabatning ochiq ifodalanishini ham adresantning kommunikativ niyati belgilaydi, yashirin ifodalanishi ham adresantning kommunikativ maqsadi asosida bo‘ladi. Tilshunoslar subyektiv munosabatning matn, gap, leksik birlik vositasida ochiq ifodalanishini tadqiq qilar ekanlar, uning qamrovi kengligini, har xil shakllarda eksplitsit va implitsit namoyonini o‘rganish pragmalingsvistikaning vazifalaridan biri deb qayd qiladilar¹⁹. Adresant shaxs subyektiv munosabatini yetarli darajada aniq ifodalashi uchun o‘zi foydalanayotgan tilni puxta bilishi qanday zarur bo‘lsa, subyektiv munosabatning verbal ifodalanishida namoyon bo‘ladigan vositalar hamda munosabatlarni to‘la topa olish uchun pragmalingsvistik tahlillar shu darajada kerakdir.

Bahoning ochiq yoki yashirin tarzda ifodalanishi aniq bo‘ladi va matnda baho adresat tomonidan bir xil talqin qilinganda, bahoni talqin qilish natijalari og‘zaki ifodalangan elementlar orqali tasdiqlangandagina explitsit baho hisoblash mumkin. Implitsit yoki yashirin, bilvosita baho tushunchalari o‘zaro umumiy semantik yadroga ega: bunday baho bevosita og‘zaki belgilarga ega emas va adresatning aksiologik dunyoqarashi asosida talqin qilinadi. Bilvosita baholar boshqa bilvosita usullar va taktikalarda bo‘lgani kabi manipulyativ xususiyatga ega bo‘ladi. Bilvosita bahoni talqin qilayotganda adresat ko‘proq o‘zining umumiy bilimlariga emas, balki muallif tomonidan joylashtirilgan “baholovchi belgilarga” tayanadi. Bilvosita baho implitsit bahoning bir qismi hisoblanadi. Implitsit baholarni aniqlash esa matnning konseptual ma’nolarini talqin qilishga imkon beradi²⁰.

Nutqda subyektiv munosabat kommunikativ maqsadga ko‘ra ochiq ifodalanganda stilistik yoki semasiologik tahlillarning o‘zi yetarli bo‘lishi mumkin, ammo subyektiv munosabat yashirin bildirilganda nutq vaziyati, adresant ijtimoiy xususiyatlari, kontekstni hisobga olmay aniq xulosa bildirish murakkablashadi. Shu jihatdan olib qaraganda, baho ijobiylashuvi hodisasini pragmalingsvistik jarayon sifatida o‘rganishda kommunikativ niyatni baho ijobiylashuvi hodisasi qarshisida o‘rganish juda muhim. Zero, kommunikativ niyat baho salbiylashuvi hodisasining yuzaga chiqishiga dastlabki asos hisoblanadi. Adresant shaxsning kommunikativ niyati qaysi so‘zning bahosini nutqda ijobiylashtirishni belgilaydi. Albatta, bunda kommunikativ niyatning har narsaga qodir tushuncha sifatida

¹⁹ Grice H.P. *Logic and Conversation*. New York: Academic Press, 1975. pp. 41–58; Levinson S.C. *Pragmatics*. – Cambridge: Cambridge University Press, 1983; Searle J.R. *Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language*. – Cambridge: Cambridge University Press, 1969; Traugott E.C., Dasher R.B. *Regularity in Semantic Change*. – Cambridge: Cambridge University Press, 2002; Halliday M.A.K. *Introduction to Functional Grammar*. – London: Edward Arnold, 1985.

²⁰ Марьянчик В.А. Оценка как категория текста // Вестник Северного (Арктического) федерального университета. Серия: Гуманитарные и социальные науки. 2011. №1. – С.102.

ko‘rmaslik kerak, chunki uni inson, til egasi shakllantiradi. Til egasining aqliy dunyosidan tashqarida turadigan kommunikativ niyat bo‘lmaydi.

Ma‘lumki, baholash suhbatdoshning his-tuyg‘ulariga qaratilgan bo‘ladi, nutqda o‘ziga xos hissiy komponentli vositachilar, hayrat bildiruvchi so‘zlar ishlatiladi. Ijobiy baho so‘zlovchi tomonidan maqtov, rag‘batlantirish, qo‘llab-quvvatlash, ruhlantirish, taskin berish va shunga o‘xshash shakllarda ifodalanadi²¹. Adresantning suhbatdoshiga subyektiv munosabati yaxshi bo‘lganda shunday munosabatga mos keladigan til birliklarini nutqqa olib kiradi, kommunikativ niyati va subyektiv munosabatiga muvofiq qilib nutq tuzadi. Xususan, “Salimning Karimga havasi keldi” degan minimal jumlada adresant *havas* so‘zini qo‘llash bilan munosabati ijobiyligini ochiq bildirgan. “Salimning Karimga nisbatan g‘ayirligi yo‘q” degan jumlada adresantning munosabati salbiy emasligi yoki neytralligi aniq, ammo munosabatining ijobiyliги yashirin holatda.

Adresantning kommunikativ niyatiga ko‘ra yaxshi subyektiv munosabatni yashirin ifodalashning yuqoridagiga o‘xshamagan shakli bor bo‘lib, bu neytral yoki salbiy baholi so‘zlarning alohida nutqiy vaziyatlarda ijobiy bahoda ishlatilishga asoslanadi. Bahoni ijobiylashtirish jarayoni kommunikativ niyatga asosan amalga oshayotganda nutq akti iltimos, ishontirish, rag‘batlantirish, qo‘llab-quvvatlash, hayrat ifodalash kabi mavzularda bo‘ladi. Kontekst mana shu mavzular doirasida quriladi, shunday mavzuga mos leksik-grammatik birliklardan foydalaniladi. Tadqiqotchi uchun kontekst yaratish bosqichi mexanik jarayondek ko‘rinsa-da, ma‘lum ma‘noda adresant yoki yozuvchi uchun kognitiv jarayon ham hisoblanadi. jumladan, yozuvchilar o‘z tajribasida baho ijobiylashtirish metodini ko‘p marta qo‘llagan bo‘ladi.

Nutqda adresantning kommunikativ niyati bilan baho ijobiylashuvidan foydalanish ijodkor bo‘lmagan odamlarda ham kuzatiladi. Ular bunday malakani o‘zi yashagan jamiyatdan o‘zlashtiradi, ba‘zan boshqalarga taqlid qilib, ba‘zan o‘zining lisoniy malakalari yordamida neytral va salbiy baholi so‘zlarni ijobiy munosabat talabi bilan qo‘llaydi. Filolog talabalar, o‘qituvchilar, umumlashtirib aytganda, faoliyati so‘z bilan bog‘liq kishilar kontekstual baho ijobiylashuvidan unumli foydalanishi mumkin. O‘z navbatida, yoshi katta kishilar ham salbiy va neytral bahoni ijobiylashtirishni nutqiy odatga aylantirishi ham mumkin. Bunga sabab ularning o‘z hayoti davomida yetarlicha til malakasiga ega bo‘lganligi hisoblanadi.

Kommunikativ niyatga ko‘ra baho ijobiylashuvining pragmalingvistik xususiyati insonlarning gender xususiyatiga ko‘ra farqlanishi mumkin. Tilshunoslikda ta‘kidlanganidek, tildan foydalanishdagi gender o‘ziga xoslik²² baho salbiylashuvi jarayoni

²¹ Медведева О.А. Языковые средства и способы положительной оценки в творчестве В.М. Шукшина. ВКР. – Белгород, 2017. – С. 21.

²² Lakoff R. Language and Woman’s Place. – New York: Harper&Row, 1975. – P. 3–55; Tannen D. You Just Don’t Understand: Women and Men in Conversation. – New York: William Morrow, 1990. – P. 24–53; Cameron D. The Myth of Mars and Venus: Do Men and Women Really Speak Different Languages? – Oxford: Oxford University Press, 2007. – P. 24–35; Coates J. Women, Men and Language: A Sociolinguistic Account of Gender Differences in Language. – London: Longman, 1986. – P. 72–96; Eckert P., McConnell-Ginet S. Language and Gender. – Cambridge: Cambridge University Press, 2003. – P. 25–48.

10-May, 2026-yil

uchun ham aloqadordir. So‘z bahosini o‘zgartirib qo‘llash, masalan, kundalik muloqotda ayollar nutqiga nisbatan erkaklar nutqida uchrashi ma‘lum bo‘ldi. Biz baho ijobiylashuvining mazkur genderologik xususiyatini mavjud dissertatsiya va lug‘atlar asosida aniqladik. Tilshunoslar N. Mahmudov va Y. Odilovlarning lug‘ati²³da baho ijobiylashuvi asosidagi nutqiy enantiosemiyalarning erkak qahramonlar nutqida yoki erkak yozuvchi asaridagi muallif nutqiga xoslanganligi ma‘lum bo‘ldi. Tilda bunday baho ijobiylashuvi adresantning kommunikativ niyatiga ko‘ra ko‘proq salbiy baholi, kamroq neytral baholi so‘zlarning semantikasida yuz beradi. O‘zbek tilida *balo, xumpar, battol, zang‘ar, bachchag‘ar, jinni, tentak, xuvari* singari so‘zlarni aynan kommunikativ niyat bahosini ijobiylashtirishi mumkin ekan.

Tilda kommunikativ niyatning baho ijobiylashuvidagi ahamiyati ortiq. Neytral va salbiy baholi so‘zlarning bahosini ijobiylashtirishdagi ishtirokida ham o‘ziga xosliklar mavjud. Adresant yoki yozuvchining aniq kommunikativ niyat taqozosiga ko‘ra neytral baholi so‘zda baho ijobiylashuvi yuz berganda o‘sha so‘zning doimiy bahosi bilan okkazional bahosi o‘rtasidagi farqlanish salbiy baholi so‘zning bahosi ijobiylashganda uning doimiy bahosi va okkazional bahosi o‘rtasidagi farqlanishdan subyektiv munosabatning biroz kuchsiz ifodalanishi bilan ajralib turadi. Buning sababi neytral baho – ijobiy baho o‘rtasidagi munosabatning tilda salbiy baho – ijobiy baho o‘rtasidagi kabi qarama-qarshi munosabat emasligidir. Aynan qarama-qarshi munosabat subyektiv munosabatning yaqqol ifodalanishini, adresantning hissiy munosabati ochiq anglashilishini ta‘minlaydi.

Kommunikativ niyatga ko‘ra baho ijobiylashar ekan, mazkur jarayonni amalga oshiruvchi subyektlarning og‘zaki va yozma nutqda aynan ishtirokchi yoki muallif sifatida qatnashishida ham o‘ziga xos xususiyatlar mavjud. Asar qahramonlari dialogda so‘z bahosini ijobiylashtirishida ko‘proq so‘kish, koyish, tanbeh berishni bildiradigan so‘zlarning bahosi ijobiylashadi, asardagi muallif nutqida ko‘proq neytral baholi so‘zning bahosi ijobiylashadi. Bu holat har bir tilning o‘ziga xos baholash, munosabat bildirish tabiati bilan bog‘liqdir. Bahoning o‘zgarishi matnning janri va hajmiga ham bog‘liq bo‘ladi. V.A. Maryanchik qayd etganidek, baholashda birlamchi ish vaziyatni ajratib ko‘rsatishdir. Har bir vaziyatning markazida baholovchi subyekt yoki muallif, qahramon yoki o‘quvchi bo‘ladi. Kichik hajmdagi matnlarda baholovchi vaziyatlar yirik matnlarga qaraganda kamroq bo‘ladi. O‘z navbatida, mediamatnlar va ilmiy asarlarda badiiy asarlarga qaraganda baholash soddaroq bo‘ladi²⁴. Xususan, ilmiy yoki publitsistik matnlarda kakofemizm yoki disfemizmlarning bahosini ijobiylashtirib qo‘llab bo‘lmaydi. Zero, kakofemistik va disfemistik birliklarning qo‘llanish o‘rni so‘zlashuv nutqi va badiiy matnlardir.

Tilda baho ijobiylashuvi haqida enantiosemiya hosil bo‘lishi haqida Y. Odilov ham fikr bildirib o‘tgan. Olimning O.S. Mindrul va L.V. Minayevaning xulosalarini tahlilini

²³Маҳмудов Н., Одиллов Ё. Сўз маъно тараққиётида зиддият. Ўзбек тили энантиосемик сўзларининг изоҳли луғати. - Тошкент: Akadernashr, 2014. – 288 б.

²⁴Марьянчик В.А. Оценка как категория текста // Вестник Северного (Арктического) федерального университета, 2011. №1. – С. 101.

10-May, 2026-yil

beradi: Ironik ma’no olgan so‘zda quyidagicha ma’no o‘zgarishlari kuzatiladi: 1. So‘z ma’nosining o‘zgarishi: a) butunlay qarama-qarshi ma’noning yuzaga keladi; b) so‘zning ijobiy baho darajasi kamayadi. 2. So‘zda implitsit konnotatsiyaning paydo bo‘lishi: a) so‘zning ingerent salbiy baho darajasi kamayadi; b) neytral baholi so‘zda salbiy baho hosil bo‘ladi²⁵. Mazkur qarashni L.V.Minayeva ham ma’qullaydi²⁶. Bizningcha ham shunday bo‘lib, mazkur kategorial belgilardan birinchisi – butunlay qarama-qarshi ma’noning yuzaga kelishi ironiya va enantiosemiya munosabatida ishtirok etadi. So‘z ijobiy baho darajasining kamayishi deb ko‘rsatilgan xususiyat esa volida so‘zining pragmatik tomoniga mos tushadi²⁷.

Olimning baho o‘zgarishi haqidagi quyidagi tahlilida ham biz o‘rganayotgan neytral bahoning ijobiylashuvi uchraydi. “*Masalan, Yigirmanchi asr. O‘zbek sovet olimlari misli ko‘rilmagan “ixtiro” qildilar: tarix “xato”sini tuzatib, o‘tmishda biz yoppasiga “savodsiz” bo‘lganimizni isbotlab berdilar.* (O‘.Hoshimov, “Daftar hoshiyasidagi bitiklar”) matnida ham bir emas, uchta so‘z ironiyaga tortilgan. Ularning ikkitasida ma’no qarama-qarshi tomonga o‘zgargan: xato deyilayotgan tarixning aslida haqqoniy, to‘g‘ri ekani, savodsiz deb kamsitilayotgan xalqning aslida savodli bo‘lgani ta’kidlangan. Ammo *ixtiro* so‘zi o‘zining zidi bo‘ladigan ma’noda namoyon bo‘lmagan: *ixtiro*, aslida, “*ixtiro emaslik*”ni ko‘rsatgan”. matndagi neytral baholi xato so‘zi “haqqoniy, to‘g‘ri” ma’nosida kelib, bahosi ijobiylashish tomon yo‘nalgan.

O‘rni kelganda baho ijobiylashuvi va salbiylashuvi hodisasining enantiosemiyadan farqini ham nazariy jihatdan asoslab o‘tish zarur. Ma’lumki, enantiosemiya bir so‘zning ikkita qarama-qarshi ma’nolarga ega bo‘lishi hodisasi hisoblanadi²⁸. Baho ijobiylashuvi yoki salbiylashuvi esa bir bahodan ikkinchi bahoga o‘zgarish sanaladi. Baho ijobiylashuvi va salbiylashuvi uchun shu xususiyat asosiydir. Ular enantiosemiyadan nutqiy vaziyatdagina ijobiylashgan yoki salbiylashgan bitta okkazonal baho ekanligi bilan farqlanadi. Enantiosemiya esa mazkur baho o‘zgarishi hodisalaridan avvalo leksik hodisa ekanligi, enantiosemiyaning lingvistik tabiati ikkita qarama-qarshi ma’noga asoslanishi bilan keskin ajralib turadi²⁹.

Mediamatnda ham baho salbiylashuvi kam bo‘lsa-da, uchraydi. Bu jarayonda ham jurnalist aniq kommunikativ maqsad asosida so‘zning bahosini o‘zgartiradi. Jurnalistik matn shunday tuziladiki, unda baho ijobiylashuviga mos keladigan so‘zlarni talab qiladi. Mediamatnlarda jurnalist har doim ham bunday usuldan foydalanmaydi. Ko‘pincha badiiy

²⁵ Миндрул О.С. Тембр II в функциональном освещении (на материале современного английского языка). Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – М., 1980. – С. 9 – 10.

²⁶ Минаева Л.В. Слово в языке и речи. – М.: Высшая школа, 1986. – С.130.

²⁷ Одилов Ё. Ўзбек тилида лексик ва фразеологик энантиосемиа. Монография. – Тошкент: “Tafakkur” nashriyoti, 2015. – В. 82.

²⁸ Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М., 1969. – С. 526.

²⁹ Qarag: Гансеев Б.Т. Первоначальная энантиосемиа и диффузность в языке // Вестник ОГУ, № 4. 2003. – С. 9 – 14; Кравцова В.Ю. Энантиосемиа лексических и фразеологических единиц: (язык и речь): Дисс. ...канд. филол. наук. – Ростов-на-Дону, 2006. – 166 с.; Острикова Г.Н. Энантиосемиа разноуровневых единиц немецкого языка: структурно-семантический, функциональный и типологический аспекты. Автореф. докт. ...дисс. филол. наук. – Ростов-на-Дону, 2014. – 33 с.; Одилов Ё. Ўзбек тилида энантиосемиа. – Тошкент, 2016. – 240 б.

10-May, 2026-yil

publitsistikada baho ijobiylashuvi faol subyektiv munosabat ifodalash vositasiga aylanadi. Kommunikativ niyat har qanday so‘zlarning bahosini ijobiylashtirishni ta’minlay olmaydi, balki ko‘proq neytral baholi so‘zlarning bahosini ijobiylashtirishni boshlab beradi. Bu esa matnning janr xususiyatiga tegishli hodisadir. Muallif o‘zi xohlaganda ham qo‘pol mazmunli so‘zlarni ijobiylashtirib qo‘llay olmaydi. Matn janriga to‘g‘ri kelmasligidan tashqari o‘quvchilarning ikkiyoqlama talqin qilinishiga olib kelishi mumkinligidir.

Tilshunoslikda bahoga munosabat bo‘yicha har xil fikrlar mavjud. Matnda bahoning maqomi allaqachon ba’zi bahslarga sabab bo‘layotganini ta’kidlash kerak. Masalan, A.F. Papina bahoni matnning doimiy kategoriyalari qatoriga kiritib, quyidagi ta’rifni taklif qiladi: “Baholash – bu adresant (nutq subyektining) sezilayotgan, tasavvur qilinayotgan, tafakkur yordamida idrok etilayotgan harakatlarga, belgilar, belgilarning belgilari, haqiqiy obyektlarga, adresantning ichki va tashqi olamiga oid obyektlarga bevosita yoki bilvosita reaksiyasidir”. Boshqa tilshunos esa bahoni alohida kategoriya sifatida ajratib ko‘rsatish unchalik to‘g‘ri emasdek tuyuladi, chunki nutq subyektiga tegishli baho boshqa bir global kategoriya – komunikatsiya ishtirokchilari guruhi tarkibida allaqachon mavjuddir, deydi³⁰. Biz ushbu masalada A.F. Papinaning qarashlarini ma’qullaymiz, olimo bahoning lingvistik mohiyatini aniq izohlab bergan. Baho kategoriyasi millatidan qat’i nazar, barcha xalqlar vakillarida voqeilikdagi biror hodisa hamda harakatga munosabat hisoblanadi.

Tilda kommunikativ niyatga ko‘ra adresant til birligi bahosini ijobiylashtirishi ma’lum bo‘ldi. Ammo til birligi bahosini ijobiylashtirishda kommunikativ niyatdan boshqa ekstralingvistik omillar ham ta’sirini o‘tkazadi. Ma’lim ma’noda kommunikativ niyatning o‘zi ham ekstralingvistik jihatga tobe yoki aloqador bo‘ladi. Mazkur ekstralingvistik omil ijtimoiy qoidalar, ijtimoiy odoblar, umuman, ijtimoiy qadriyatlar hisoblanadi. Adresantning kommunikativ niyati qanday bo‘lmasin, agar baho salbiylashuvi aytib o‘tilgan ijtimoiy qadriyatlarga mos tushmasa, nutqqa olib kirilmaydi. Mabodo ijtimoiy qabul qilinmaydigan baho ijobiylashuvi nutqiy namoyon qildirilsa ham, muvaffaqiyatli chiqmaydi. Adresantning adresantning maqsadini yaxshi anglamaydi, nutq tuzishdan oldingi maqsad o‘rniga tushmaydi. Adresant va tinglovchi baho ijobiylashuvini bir xil talqin qilmaydi. Ya’ni adresant salbiy baholi so‘zni ijobiy bahoda – nutq obyektini maqtash maqsadi bilan qo‘lladi, ammo bunday qo‘llash jamiyat til madaniyatiga yot yoki umumqabul qilinmagan bo‘lsa, tinglovchi so‘zni doimiy salbiy bahosida tushunadi. Ana shunda adresant – adresant ikkiyoqlama talqini kelib chiqadi. Shuning uchun ham rus tilshunosi V.I. Karasik ijobiy va salbiy baholarning ijtimoiy xususiyatli bo‘lishini ta’kidlagan hamda bu baholar uchun mos nutqiy vaziyatlar chegaralari haqida fikr yuritgan edi³¹.

Kommunikativ niyatga ko‘ra baho salbiylashuvi jamiyat o‘rgangan tushunchalar doirasida amalga oshishi ma’lum bo‘ldi. Endi mazkur jarayonda qaysi leksik birliklar ishtirok etishini aniqlashtirish lozim yoki lingvomadaniyatdagi qaysi tur birliklarning odatiy bahosidan ijobiy bahoga tomon siljishi mumkinligimi izohlash kerak. Odatda, tildagi leksik

³⁰ Папина А.Ф. Текст: его единицы и глобальные категории. - М., 2002. – С. 267.

³¹ Карасик В.И. Здравый смысл как культурологический концепт // Концептуальное пространство языка: сб. науч. тр. / под ред. проф. Е.С. Кубряковой. – Тамбов, 2005. – С. 199.

10-May, 2026-yil

birliklarning neytral yoki salbiy bahosini kommunikativ niyatga ijobiylashtiradi. Bu jihatdan belgi bildiradigan so‘zlar, otlar va fe’llarning neytral yoki salbiy bahosi ijobiylashadi. Baho ijobiylashuviga tortilgan leksik birliklar nutqqa qadar bunday xususiyatlarga ega bo‘lmasa ham, bu degani lingvomadaniyat uchun tamoman begona jarayon hisoblanmaydi.

Xalqning lingvomadaniyatida muayyam turdagi leksik va frazeologik birliklarning bahosini ijobiylashtirishi mumkin bo‘lgan tajribalar bo‘ladi. Adresant ana shu lingvomadaniyatga xos tajribalar asosida yoki nutqiy ko‘nikmalarga binoan so‘z yoki ibora bahosini ijobiylashtirib qo‘llaydi. Adresant mutlaqo yangi tajribani qo‘llab baho ijobiylashtirishi juda murakkab, faqat mahoratli ijodkorlar yoki malakali til egalari so‘z va iboralarni avval kuzatilmagan holatlarda qo‘llashi mumkin. Mazkur fikrdan baho salbiylashuvi jarayoni individual, nutqiy hodisa bo‘lsa ham, ma’lum ma’noda unda avvalgilarning tajribalaridan foydalaniladi degan xulosa kelib chiqadi. Mazkur xulosa faqat bir til uchun ham xos bo‘lmay, balki barcha tillarda uchrashi mumkin bo‘lgan baho o‘zgarishlariga tegishli hisoblanadi. Shunga asosan, so‘z yoki frazeologik birlik neytral yoki salbiy bahosining ijobiylashuvi hodisasi universal hodisa sifatida ham belgilash ma’qul bo‘ladi.